


SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi 2024- yil yanvar-may oylari




**Tel.: 67-236-70-00
www.sirstat.uz**

Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7291,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (187679,1 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7959,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4012,2 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Shirin shahri (49,9 %), Sirdaryo tumani (16,9 %), Boyovut tumani (9,7 %), Guliston shahri (6,2 %) hamda Yangiyer shahri (4,4 %) hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Boyovut tumanida (117,8 %), Yangiyer shahrida (108,4 %) hamda Sayxunobod tumanda (108,1 %) kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,8 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,3 % ga to'g'ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3209,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,4 % ni (2023- yilning yanvar-may oylarida – 4,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali –3,8 % (3,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,7 % (21,1 %), quyi texnologiyali 71,1 % (71,2 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 1,0 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 192,2 %), asosiy farmatsevtik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi- 5,4 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %) hamda boshqa nometal mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,7 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,0 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3 %)ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 11,2 ming tonna paxta tolasi (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 10,0 % ga kamaygan), 6,9 ming tonna kalava ip (3,6 % ga ko'paygan), 5,4 ming tonna kepak mahsulotlari (1,7 % ga kamaygan) hamda 12,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	1065,0	0,0	-1065
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	719,0	665,4	-53,6
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	7,5	6,1	-1,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	13,4	12,7	- 0,7
Paxta tolasi, ming t.	12,5	11,2	-1,3

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – choʻyan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma choʻyan va toza metallarga kimyoviy elementlar qoʻshgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % boʻlib, ishlab chiqarish hajmi 47,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli boʻlgan ishlab chiqarish turlarini oʻz ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga oʻrnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,7 % ni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 % tashkil qilib, shundan ishlab chiqarish hajmi 312,5 mlrd. soʻmga toʻgʻri keladi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 29,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 936,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 212,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 25,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 29,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,3 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 944,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 145,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 109,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 50,9 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarning uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 28,6 % ga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 90,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,2 % ga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 32,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4012,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 119,5 % ni) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 120,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 85,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	7224,5	6307,9	-916,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	49,1	74,3	25,2

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,4 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarda 23,3 % ga ko'paydi. Shuningdek, suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 29,8 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd. so'm	5,8	9,1	3,3

Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm	15,1	33,1	18,0
---	------	------	------

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra